O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

2026 - yil 24 - apreldagi 278708 - sonli

**YIG'MA EKSPERT XULOSASI**

**Obyekt nomi:** Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Orzu MFY “EVOLVE GROUP” MCHJ tomonidan qurilishi rejalashtirilgan 1-qavati savdo-umumiy ovqatlanish va ofisdan iborat 9 qavatdan yuqori ko‘p qavatli (12 qavatli) turar-joy bino-inshootlari qurish

**Buyurtmachi:** “EVOLVE GROUP” MCHJ

**Bosh loyihachi:** "YUKSALISH QURILISH LOYIHA ISHLARI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

**Moliyalashtirish manbai:** Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

**Bosh pudratchi:** Loyiha topshirig‘iga asosan

**Qurilish turi:** Yangi qurilish

**Murojaat raqami:** 110251

**1. Loyihalash uchun asos.**

1.1. “Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJning 3.01.2025 yildagi YU-1235141-sonli bayonnomasi.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig‘i.

1.3. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 12.05.2025 yildagi 1714-1714401-225385-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

1.6. “GEO VALLEY GOLD” MCHJ tomonidan 2026 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosa.

1.7. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 24.12.2025 yildagi 24.12.001/2025-sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- 12 qavatli turar-joy binosi (1-blok, 2-blok va savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchasi). Arxitektura va qurilish qismi hamda ichki muhandislik tarmoqlari.

- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi.
- Smeta hujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

| Bino | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Turi** | **Nomi** | **Qavati** | **Qurilish maydoni** | **Umumiy maydoni** | **Xajmi** |
| Ko'p xonadonli turar joy binosi | 12 qavatli turar joy-binosi (1 blok) | 12 | 758 | 8808 | 21061 |
| Ko'p xonadonli turar joy binosi | 12 qavatli turar joy-binosi (2 blok) | 12 | 758 | 8808 | 21061 |
| Savdo va xizmat ko'rsatish binosi | Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchasi | 1 | 286 | 518 | 2245 |
| Boshqa | Ayvon (besedka) – 4 dona | 1 | 71 | 65 | 231 |
| **Jami:** | | | **1873** | **18199** | **44598** |

**3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.**

Ko‘p qavatli turar-joy binolari Namangan shahar Davlatobod tumani Orzu MFYda joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 29,1 metrgacha) asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerning seysmik holati bo‘yicha toifasi – II. Cho‘kuvchanligi bo‘yicha cho‘kmaydigan tuproq turiga to‘g‘ri keladi. Yer osti suvlari yer sathidan 7,5-7,8 metrda aniqlangan. Yerni tuzilish relefi – tekis.

**3.2. Qurilish maydoni.**

Turar-joy binolari uchun ajratilgan yer maydoni Namangan shahar Davlatobod tumani Orzu MFYda joylashgan bo‘lib, umumiy yer maydoni – 2213 m. Yer maydoni “Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJning 3.01.2025 yildagi YU-1235141-sonli bayonnomasiga asosan ajratilgan.

**3.3. Bosh reja.**

Ajratilgan 2213 mhududda joylashgan: loyihalanayotgan 12 qavatli turar-joy binosi – 2 dona (1-blok, 2 blok), savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchasi, ayvon (besedka) – 2 dona. Shuningdek, yondosh hududda bolalar maydonchasi, sport maydonchasi, ayvon (besedka) – 2 dona, chiqindi yig‘ish maydoni – 2 dona, avtoturargoh, kichik me’moriy inshootlar ko‘zda tutilgan. Hudud obodonlashtiriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi.

**3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.**

*1. 12 qavatli turar-joy binosi (1-blok).*

Bino – 12 qavatli, sokol qavatli, yaxlit quyma temir-betondan, murakkab shaklni tashkil etib, “A-K” va “1-13” o‘qlar bo‘yicha 21,4mx32,4m o‘lchamda, sokol qavat balandligi – 3,16m, 1-qavat balandligi – 4,2m, 2÷12 qavatlar balandligi – 3,16m, yuqoridagi texnik qavat balandligi – 2,4m.

Binoning sokol hamda 1-qavatida qisman turar-joy xonadonlari va savdo zali, 2÷12-qavatlarda turar-joy xonadonlari joylashtirilgan. Jami xonadon soni – 153 dona (sokol

qavatda – 4 dona, 1÷12 qavatlarda – 149 dona), shu jumladan: 1-xonali – 70 dona (sokol qavatda – 1 dona, 1÷12 qavatlarda – 69 dona), 2-xonali – 50 dona (sokol qavatda – 3 dona, 1÷12 qavatlarda – 47 dona), 3-xonali – 33 dona (1÷12 qavatlarda).

*Konstruktiv yechimi.*

*Poydevor* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

*Yerto'la devorlari* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V30.

*Devorlar* – yaxlit quyma temir-betondan, 200÷300 mm qalinlikda, beton markasi V30 va "dekorativ" g'ishtdan , 120 mm qalinlikda.

*Pardadevor* – zichligi 600 kg/m3 bo'lgan avtoklav o'zaklangan gazobetondan, 200mm qalinlikda va pishiq g'ishtdan, 120mm qalinlikda.

*Sarbastalar va o'zaklar* – metal burchaklardan.

*Zinapoyalar* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

*Ora va tomyopmalar* – yaxlit quyma temir-betondan, 160mm qalinlikda, beton markasi V25.

*Tom* – yumshoq, 2 qatlam "folgoizol" qoplamadan.

*Derazalar* – PVX profil.

*Eshiklar* – alyumin profil, metall va MDF.

*Pol* – laminat, keramik, beton.

*2. 12 qavatli turar-joy binosi (2-blok va savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi).*

Turar-joy binosi – 12 qavatli, sokol qavatli, yaxlit quyma temir-betondan, murakkab shaklni tashkil etib, "A-K" va "1-13" o'qlar bo'yicha 21,4mx32,4m o'lchamda, sokol qavat balandligi – 3,16m, 1-qavat balandligi – 4,2m, 2÷12 qavat balandligi – 3,16m, yuqoridagi texnik qavat balandligi – 2,4m.

Savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi – 1 qavatli, sokol qavatli, karkasli (13-14 o'qda turar-joy binodan seymik chok bilan ajratilgan), to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-G" va "13-16" o'qlar bo'yicha 21,0mx11,49m o'lchamda, sokol qavat balandligi – 3,16m, 1-qavat balandligi – 4,3m.

Binoning sokol hamda 1-qavatida turar joy xonadonlari va "A-G" va "13-16" o'q savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, 2÷12-qavatlarda turar-joy xonadonlari joylashtirilgan. Jami xonadon soni – 151 dona (sokol qavatda – 9 dona, 1÷12 qavatlarda – 142 dona), shu jumladan: 1-xonali – 88 dona (sokol qavatida – 5 dona, 1÷12 qavatlarda – 83 dona), 3-xonali – 63 dona (sokol qavatida – 4 dona, 1÷12 qavatlarda – 59 dona).

*Konstruktiv yechimi.*

*Poydevor* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25 va qisman alohida temir-betondan, beton markasi V15.

*Yerto'la devorlari* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V30.

*Devorlar* – yaxlit quyma temir-betondan, 200÷300mm qalinlikda beton markasi V30 va "dekorativ" g'ishtdan , 120 mm qalinlikda.

*Pardadevor* – zichligi 600 kg/m3 bo'lgan avtoklav o'zaklangan gazobetondan, 200mm qalinlikda va pishiq g'ishtdan, 120mm qalinlikda.

*Sarbastalar va o'zaklar* – metall burchaklardan.

*Ramalar* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

*Zinapoyalar* – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

*Ora va tomyopmalar* – 160mm qalinlikda yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25 ( turar-joyda) va 1.141.1-28s seriyali yig'ma temir-beton plitalardan (savdo va maishiy

xizmat ko‘rsatish shahobchasida).

*Tom* – yumshoq, 2 qatlam “folgoizol” qoplamadan.

*Derazalar* – PVX profil.

*Eshiklar* – alyumin profil, metall va MDF.

*Pol* – laminat, keramik, beton.

*3. Ayvon (besedka) – 4 dona.*

Ob’ektga avvalda ishlab chiqilgan loyiha bog‘langan.

*4. bolalar maydonchasi, sport maydonchasi, kichik me’moriy inshootlar.*

Zavodda ishlab chiqarilgan tayyor jihozlari o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

**Ichki muhandislik tarmoqlari.**

*Isitish va shamollatish.*

Issiqlik ta’minoti manbai markazlashtirilgan issiqlik manbaiga ulangan. Loyihada qiziq chiziq hudidida joylashgan barcha binolarga tashqi issiqlik tarmog‘lariga ulangan. Tarmoqlar yer osti 2 ta quvurli tortuv tarmoqlari bo‘lib, har bir uyga kirish nuqtalarida nazorat kameralari o‘rnatilgan. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=90°, T2=70°s parametrlarga ega bo‘lgan suv bo‘lib, isitish tizimi ikki quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta’minlangan bo‘lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo‘tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta’minlangan.

*Ichimlik va oqava suv ta’minoti.*

Binoga xo‘jalik-ichimlik, issiq suv, oqava suv hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa va po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti uchun quyosh suv isitgich qurilmalari nazarda tutilgan.

*Elektr qismi.*

Loyihada 380/220V kuchlanish ishchi yoritish ko‘zda tutilgan. Hisobiy quvvat – Rh= 289,78 kVt (1-blok), Rh=325,14 kVt (2-blok). Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish va quvvatli tarmoqlari VVGng-380V, magistral shitlarning tarmoqlari VVG-380V kabelda loyihalangan. Loyihada ShK turdagi xonadon shitchasi, ShE turdagi yoritish qavat shitlari, ShRNm, ShMP, PR11 va VRU11 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o‘rnatilishi hisobga olingan. Har bir xonadon elektr energiyasi hisoblash uchun zamonaviy 1 fazali hisoblagichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

*Yong‘in signalizatsiya.*

Ikki simli liniya kontrollerlari, qo‘riqlash-yong‘in nazorati va boshqaruv pulti, klaviaturali indikatsiya bloklari hamda signal-ishga tushirish bloklari RS-485 interfeysi orqali yagona tarmoqqa birlashtiriladi. Tizimni boshqarish qo‘riqlash-yong‘in nazorati va boshqaruv pulti S2000M yordamida amalga oshiriladi. Yong‘in yuzaga kelishi yoki nosozlik haqida ma’lumotlar yorug‘lik va ovozli signalizatsiya ko‘rinishida 24 soatlik qo‘riqlash postiga o‘rnatilgan S2000-BKI indikatsiya tablosida, shuningdek postda o‘rnatilgan S2000M qo‘riqlash-yong‘in nazorati va boshqaruv pultida aks ettiriladi. Maksimal-differensial issiqlik yong‘in xabarlagichchilari (S2000-IP-03) bug‘, tutun va shunga o‘xshash ajralmalar bilan bog‘liq ishlab chiqarish jarayonlari mavjud bo‘lgan xonalarda o‘rnatiladi. Qo‘lda ishga tushiriladigan adresli yong‘in xabarchilari (IPR513-3A) evakuatsiya yo‘llarida, asosiy

chiqish joylari yonida o‘rnatiladi.

*Yong‘in xavfsizligi.*

Konstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi –II, konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – S0, funksional yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – F 1.3. Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- binoga yetib kelish va atrofida aylanma yo‘llar;
- evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablariga mos;

binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi minvata) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi;

- tomga chiqish ichki zina katagi orqali, tomdagi balandlik farqlarida narvon-zinapoyalar;
- yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga;
- yuqori qavatlardan evakuatsiya N1 turdagi tutun qoplanmaydigan zina kataklar orqali;
- har bir xonadonda tashqi ochiq balkonlar;
- evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, o‘z-o‘zidan yopiladigan moslama bilan jihozlangan;
- har bir qavatda me’yoriy soniga ega yong‘in o‘chirish kranlari joylashtirilgan ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti, shkaflarda nasosni masofadan ishga tushirish uchun “pusk” tugmasi;
- yerto‘la qavatda alohida xonada suv bosimini ko‘tarish maqsadida yong‘inga qarshi nasoslar, undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqariga chiqish;
- yong‘in o‘chirish texnikasini ulash uchun binodan tashqari (fasad)da tashqaridan boshqariladigan zadvijkali va teskari klapanli D-80 mm quruq quvurlar;
- har bir qavat yo‘laklarida yong‘in paytida tutunga qarshi himoya tizimi;
- barcha xonalarda avtomatik yong‘in signalizatsiyasi;
- yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi;
- evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo;
- tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadida maydon ichidagi tarmoqda 4 dona yong‘in gidrantlari;
- yong‘in vaqtida lift shaxtasining yuqori qismiga alohida kanal orqali tashqi havo berish tizimi.

*Energiya tejamkorlik.*

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- sokol qavati pol ostiga zichligi γ=30 kg/m3, qalinligi 30 mm bo‘lgan “penopolistirol” bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi γ=140 kg/m3, qalinligi 100 mm bo‘lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- tomga zichligi γ=150 kg/m3, qalinligi 100 mm bo‘lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVXdan qo‘llanilgan;
- loyihada jami 160 dona quyosh panellari (160x0,62 kVt=66,0 kVt), 28 dona quyosh kollektori o‘rnatish ko‘zda tutilgan;
- hududni tashqi yoritish uchun 10 dona 50 Vtli quyosh panelli yoritgichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

*Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:*

- bino sokoli va 1-qavatga kirish joyida maxsus ko‘targichlar, chiqish oldida ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- bino savdo zali hududida maxsus hojatxonalar, pol sathida ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- bino kirish eshiklarida kontrast belgi, yo‘laklarida ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplamalar, chaqiruvchi tugmalar, harakatni ko‘rsatuvchi belgilar, zina tutqichlarida “Brayl” alifbosi taktil ma’lumotlari ko‘zda tutilgan;
- binoda qavatlarga ko‘tarilish uchun liftlar ko‘zda tutilgan;
- hududda maxsus avtoturargoh ko‘zda tutilgan;
- hudud yo‘laklariga maxsus yo‘naltiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

*4.1. Suv ta’minoti* – “Namangan suv ta’minoti” AJning 4.04.2026 yildagi 02/105-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib Yangi Namangan shaharchasi hududidagi loyihaviy suv tarmoqlari qabul qilingan.

*4.2. Oqava suv* – “Namangan suv ta’minoti” AJning 4.04.2026 yildagi 02/105-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib Yangi Namangan shaharchasi hududidagi loyihaviy oqava suv tarmoqlari qabul qilingan.

*4.3. Elektr ta’minoti* – loyihada quvvati 2x1000 kVA bo‘lgan 2 transformatorli 2KTPG rusumdagi transformator punkti, AIISKUE tizimi o‘rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko‘zda tutilgan .

*4.4. Issiqlik ta’minoti* – mavjud markazlashtirilgan issiqlik tarmog‘iga ulanishi ko‘zda tutilgan.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- Namangan viloyati Arxitektura va shaharsozlik Kengashining 3.04.2026 yildagi 272237513-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi Markazi Namangan viloyati filialining 21.01.2026 yildagi 01-02/07-5117-sonli xulosasi.
- Bosh reja “Yangi Namangan shaharchasi” zamonaviy ishbilarmonlik markazi va turar joylar kompleksini barpo etish” direksiyasi va buyurtmachi bilan kelishilgan.
- Xonalar joylashtirish rejasi buyurtmachi bilan kelishilgan.

**6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **63 253 009 186** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **2 395 330 189** so'mga kamaytirilib,
**60 857 678 997** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **50 175 158 195** so'm
Asbob-uskunalar: **4 162 055 195** so'm
QQS: **6 520 465 607** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- Bosh reja GOST 21.508 va tasdiqlangan chiziq chiziq asosida – ishlab chiqildi.
- Bosh reja “Yangi Namangan shaharchasi” zamonaviy ishbilarmonlik markazi va turar joylar kompleksini barpo etish” direksiyasi – bilan kelishildi.

- Bosh rejada avtoturargohlar ShNQ 2.07.01-23ning 29-jalvaliga asosan – bajarildi.
- Bosh reja bino va inshootlar qaydnomasida xonadonlar soni – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.01-23ning 675-bandiga asosan yong‘in-qutqaruv avtomobili kelish joyining ichki qismidan o‘rab turgan konstruksiyalarigacha masofa 10 metr dan kam bo‘lmasligi – ta’minlandi.
- ShNQ 2.07.01-23ning 667-bandiga asosan yong‘in-qutqaruv texnikalari o‘tish yo‘llari kengligi bino 4,2 metr kam bo‘lmasligi – ta’minlandi.
- ShNQ 2.07.01-23ga asosan ko‘kalamzorlashtirish maydonlari 25%dan kam bo‘lmasligi – ta’minlandi.
- ShNQ 2.07.02-24ning 200-bandiga asosan NBShlar uchun moslashtilgan avtoturargoh o‘lchami 3,6x6,0m bo‘lishi – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-24ning 201-bandiga asosan turar-joylar hududida uchun ajratilgan avtoturargohda 3% joy NBShlar uchun – ajratildi.
- ShNQ 2.07.02-24ning 203-bandiga asosan savdo va markazi uchun ajratilgan avtoturargohda 10% joy NBShlar uchun – ajratildi.
- ShNQ 1.03.03-23 ning 3-ilovasiga asosan qayta ishlangan loyiha topshirig‘i – taqdim etildi.

*12 qavatli turar-joy binosi (AR-bo‘limi).*

- Umumiy ma’lumotlar varag‘ida energiya samaradorlik bo‘limi – tuzatildi.
- Loyiha oldi hujjatlari (ART, kengash) ga zid ravishda tashkil etilgan bino 2- qavatidagi savdo zali turar-joyga – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.08.02-23 ning 165-bandiga asosan savdo zali asosiy kirish joyida tambur – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ning 144-bandiga asosan savdo zalida nogironlar uchun hojatxona (maxsus kabina) – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.02-23 ning 769-771-bandlariga asosan savdo zali xodimlari va kelib ketuvchilar uchun hojatxonalar – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ning 127-bandiga asosan savdo zaliga nogironligi bo‘lgan shaxslarni erkin kirib chiqish uchun maxsus ko‘targichlar – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 35-bandiga asosan qavatlardagi birlashtirilgan sanitariya (vanna va hojatxona) xonasi maydoni 4 m2 dan kam bo‘lmagan miqdorga – keltirildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 35-bandiga asosan qavatlardagi yotoqxona maydoni 12m2 dan, umumiy xona 16m2 dan kam bo‘lmagan miqdorga – keltirildi.
- Yondosh bino bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchami – ko‘rsatildi.
- sokol qavatdagi savdo zali va xonadonlar uchun pollar tasnifi jadvali – ishlandi.
- Keramik pol ostiga suvdan himoya qatlami – ko‘zda tutildi.
- GOST 21.501-2018 ga asosan “1-1” qirqimda tom qatlami – ko‘rsatildi.
- Zina, balkon tutqich chizmalari – ishlandi.

*12 qavatli turar-joy binosi (KJ-bo‘limi).*

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qarorga asosan loyiha-smeta hujjatlarida zilzila bardoshlikka doir vibrodinamik uskuna yordamida tekshiruvdan o‘tkazish – aks ettirildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2.10.2024 yildagi 14-06/10342-sonli xatiga asosan loyihada zilzilabardoshlikka doir instrumental-

texnik tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha talablar – aks ettirildi.
- Loyihaviy ikkita yondosh binolar uchun bitta kotlovan rejasi – ishlandi.
- Kotlovan va “1-1” qirqim o‘zgarmas ±0.000 sath bilan – bog‘landi.
- Namunaviy loyihalarga asosan kotlovan rejasida geologiya ma’lumotlari, poydevorni geolog ijobiy xulosasi olingandan so‘ng boshlash to‘g‘risida ma’lumotlar – kiritildi.
- Yondosh bino bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchami – ko‘rsatildi.
- O‘zgartirilgan geologiya asosida ishlangan poydevor va seysmik kuchlar hisobi – taqdim etildi.
- Namunaviy tugunlarga assan sokol qavat devori tashqi tomondan issiqlik himoya qatlami bilan – himoyalandi.
- Loyihada “PK-1” (podderjivayuщiy karkas) balandligi poydevor hisobiga ko‘ra – o‘zgartirildi.
- Yaxlit quyma devorlar sxemasi rejasida devorlar kesishgan joylardagi armaturalarni bir-biriga biriktirish, qo‘shimcha kuchaytirish bo‘yicha fragmentlar – ishlandi.
- Yaxlit quyma devorlar sxemasi rejasi va devorlar yoyilmasi chizmasi 16-qavatli binodan 12-qavatda bino uchun – qayta ishlandi.
- Loyihada +4,2, +8,010, +11,17.....+39,61 sathlardagi yaxlit quyma orayopma rejalari – ishlandi.
- O‘zgartirishlar yuzasidan qo‘shimcha kiritilgan 1-qavatli savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchasi poydevor, karkas, ora va tomyopma chizmalari – ishlandi.
- Lift shaxtasi chizmasi – ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ga asosan pardadevor sxemasi rejasi va uni asosiy konstruksiyaga mahkamlash tugunlari chizmasi – ishlandi.
- ShNQ 2.03.15-23 ga asosan gazobeton blok uchun “avtoklav” turi – qo‘llanildi, zichligi, miqdori jadvalga – kiritildi.

*Kichik me’moriy inshootlar*

- Bosh rejaga ko‘ra ayvon (besedka) chizmasi – taqdim etildi.

*Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish albomi.*

- Namunaviy qo‘llanmaga asosan al’bom tarkibiga bosh reja bo‘yicha yechim – kiritildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ga asosan maxsus ko‘targichlar fragmenti, miqdori – berildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ning 35-bandiga asosan eni 2,5 metrdan katta tashqi zinalarda qo‘shimcha tutqichlar – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ga va namunaviy qo‘llanmaga asosan maxsus hojatxona fragmenti, ichki o‘lchamlari, jihoz miqdori – berildi.
- Turar-joy tomondagi kirish joyida ogohlantiruvchi taktil qoplama – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-24 ning 113-bandiga asosan shaffof oynali eshiklari osti 0,3 metr balandlikda zarbga chidamli qoplama bilan – himoyalandi.
- Namunaviy qo‘llanmaga asosan lift bo‘yicha fragmentlar, jihoz miqdori – berildi.

***Muhandislik ta’minoti.***

*Ichimlik va oqava suv ta’minoti.*

- “Namangan suv ta’minoti” AJning 4.04.2026 yildagi 02/105-sonli texnik shartiga asosan tashqi ichimlik va oqava suv ta’minoti ishchi chizmasi – taqdim etildi.
- Tashqi oqava suv quvurlari qiyaligi ko‘rsatilgan bo‘ylama qirqim chizmasi – taqdim etildi.

- Tashqi ichimlik suv ta’minotida favqulodda holatda tashqi yong‘inni bartaraf etish bo‘yicha loyiha yechimi – berildi, yong‘inga qarshi gidrantlar – ko‘zda tutildi.
- Binolarning yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi ShNQ2.08.01-24ning 257- bandiga muvofiq, bino fasadiga chiqarilgan yong‘in o‘chirish avtonasoslarni ulash uchun birlashtiruvchi tirsaklar bilan – jihozlandi.
- ShNQ2.04.01-22ning 77-bandi 1-jadvalga muvofiq binoning ichki qavatlararo yong‘inga qarshi kranlar tizimi to‘liq, barcha qavatlar bo‘yicha – ishlandi.
- Loyihada yong‘inga qarshi nasoslar ko‘rsatkichi ShNQ2.04.01-22ning 77, 78- bandlariga muvofiq – to‘g‘rilandi.
- Oqava suv quvurlari aksonometrik chizmada stoyaklarda reviziya, prochistkalar to‘liq – ko‘rsatildi.
- ShNQ2.04.01-22ning 413-bandiga asosan VK-2 varaqda oqava suv stoyaklaridan tashqi nazorat qudug‘igacha chiqish quvuri diametri – kattalashtirildi.
- Blok-1 binosi sokol qavatidagi savdo zallari maydonlari – qisqartirildi.
- Blok-2 binosi yoniga biriktirib joylashtirilgan savdo binosi ichki yong‘inga qarshi kranlar bilan – jihozlandi.

*Isitish va shamollatish.*

- QMQ 2.01.04-2018 ning 2.1* bandi 2b jadvaliga muvofiq issiqlik himoyalashning ikkinchi darajasi bo‘yicha hisobi – ishlab chiqildi.
- Binolarning energopasporti – taqdim etildi.
- Tashqi issiqlik tarmog‘i chizmasi – ishlab chiqildi va issiqlik manbai –ko‘rsatildi.
- sokol qavatida olib yurilgan asosiy quvurlarning olib yurish balandlik sathlari va issiqlik ximoya qatlami – ko‘rsatildi.
- Savdo zallari uchun ShNQ 2.08.02-23ga asosan shamollatish loyiha yechimlari –ishlab chiqildi.

*Elektr qismi.*

- Turar-joy binolarining tashqi elektr ta’minoti – ishlab chiqildi.
- Shitlarning hisobiy sxemalari to‘liq hajmda – ishlab chiqildi.
- Binoning hisobiy quvvatlari – qayta hisoblandi.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati – o‘zgartirildi.
- Elektromobil va gibrid avtomobillarni quvvatlash stansiyalari – ko‘da tutildi.
- Turar-joy binosi qavat shitlari elektr ta’minoti – o‘zgartirildi.
- Kuchli zilzila paytida elektr ta’minotini avtomatik uzish uchun asosiy taqsimlash shitida boshqarish qurilmasi – ko‘zda tutilgan.

6.2. Ekspertiza tomonidan import qurilish materiallar va buyumlar, maxsus uskunalar, mebel va inventar hamda texnologik jihozlarning narxlari ko‘rib chiqilmadi.

6.3. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Namangan viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi. Buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida haqiqatda ishlagan mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlari hamda qurilish-montaj ishlarini bajarish davriga taalluqli “Pudratchining boshqa xarajatlari” kattaligi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim.

6.4. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

**7. Xulosalar.**

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Namangan shahar Davlatobod tumani Orzu MFY “EVOLVE GROUP” MCHJ tomonidan qurilishi rejalashtirilgan 1-qavati savdo-umumiy ovqatlanish va ofisdan iborat 9 qavatdan yuqori ko‘p qavatli (12 qavatli) turar-joy bino-inshootlari qurish” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Mamasidikov Kayimjon Sobirovich, Otaxanov Shokirjon Shuxratjon O‘g‘li, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Axmedov Rustambek Xamidovich, Mirzayeva Muyassarxon Qodirjonovna, Jalilov Shokirjon Zokirjonovich, Tursunov Doniyor Ismonjanovich, Tursunov Ilyosbek Yunusxonovich

**Bosh ekspert** **TURSUNOV ILYOSBEK YUNUSXONOVICH**